



www.tongyulduzi.uz

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy an'analarimiz, ona tilimiz, xalqimizning bebaho qadriyatlari va madaniy merosini tiklashni ta'minladi

**Vatan yagonadir,
Vatan Bittadir!**

N:47 (67004)

2014-yil

24-noyabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

QASHQADARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATIGA BAG'ISHLANGAN

**MAXSUS
SON**



Shu yilning 15-20-noyabr kunlari Toshkent shahrida «KAMALAK YULDUZLARI» respublika bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va qator tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan mazkur festivalda 6-15 yoshgacha bo'lgan jami 698 nafar bolalar yakuniy bosqich g'olibligini qo'lga kiritish uchun o'z iqtidorlarini namoyon etdilar.

Ular orasida Qashqadaryo viloyati ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Alisher Avazov ham bor. Bugun Alisherning quvonchi cheksiz. Chunki u festivalning «E» yo'nalishida ishtirok etib, faxrli 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Siz ham Alisherga havas qiling va u kabi g'oliblar safida bo'ling.

Sh. MAXMADIYEV olgan surat



**Sohibqiron qadami tegib,
Dong'i ketgan butun dunyoga.
Oqsaroyini mahliyo etib,
Tong oqargay Qashqadaryoda.**

HAMMASI BOLALAR UCHUN

**DIQQAT!
DIQQAT!**

**«Tong yulduzi»
gazetasiga obuna
bo'lishga shoshiling!**



O'g'im tanlagan gazeta

Kuni kecha poytaxtimizdagi «O'zekspomarkaz» ko'rgazmalar zalida an'anaviy «O'zbekiston matbuoti» IV Milliy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan nashriyotlar, gazeta va jurnallar o'z mahsulotlarini namoyish etdilar.

Mazkur anjumanda bolalar nashrlarining ko'rgazmasini tashkil etish va ularni targ'ib qilish ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Viloyatlarda chop etilayotgan bolalar nashrlari hamda respublika miqyosidagi «Tong yulduzi»,

«Klass!» gazetalarini va «Gulxan», «G'uncha» jurnallarini faoliyati bilan yaqindan tanishish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Ko'rgazmaga tashrif buyurgan maktab o'quvchilari o'zlarining sevimli nashrlari hamda bolalar adabiyoti borasida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Nashr ko'rsatkichi - 198

Qashqadaryo viloyatiga safar oldidan maqsadimiz u yerdagi o'quvchilarning bugungi kunda fan, sport, musiqa va san'at sohasida erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishish edi. Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i bilan muloqotimiz chog'ida o'quvchilarning yutuqlari yanada salmoqli ekanining guvohi bo'ldik.

YOSHLARIMIZ PARVOZI BALAND



«Barkamol avlod» bolalar markazlariga 5616 nafar, Bolalar musiqa va san'at maktablariga 3097 nafar o'quvchilar, umumta'lim maktablaridagi 14 799 ta fan, kasb, sport va ijodiy to'garaklarga 369 968 nafar o'quvchilar jalb etilgan. Sport sog'lomlashtirish guruhlaridagi 236 311 nafar o'quvchilar sport bilan muntazam shug'ullanib kelishmoqda.

To'ra SAIDOV,
Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

– Viloyat xalq ta'limi tizimida 1121 ta umumta'lim maktabi, 15 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari, 329 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 19 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari faoliyat yuritadi. Umumta'lim maktablarida 2014–2015-o'quv yilida 474707 nafar o'quvchilar ta'lim olishmoqda.

Yangi o'quv yilida viloyatda yana uchta yangi maktab binolari barpo etildi. Qamashi tumanidagi 68-, Nishon tumanidagi 30-, Chiroqchi tumanidagi 127-umumta'lim maktabining yangi binosi ayni kunlarda o'quvchilarni o'z bag'riga oldi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha ham



o'tgan 2013–2014-o'quv yilida Respublikada 5-o'rinni egalladilar. Ishonamanki, bilimdonlarimiz izlanishda davom etib, yanada yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishadi.

Kitob tumanidagi 1-DIMIning 8-sinf o'quvchisi Ne'matova Yulduz Qosim qizi matematika fanidan Respublika bosqichida g'olib bo'lib, Koreya davlatining Tedjon shahrida o'tkazilgan xalqaro olimpiadada munosib ishtirok



etib qaytdi.

Maqtovg'a sazovor yutuqlarimizdan yana biri umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Kitobxon oila» mavzusida o'tkazilgan tanlovning Respublika bosqichida Yakkabog' tumanidagi 2-umumta'lim maktabi jamoasi faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Ushbu yutuqlarda fidoyi ustozlarimizning xizmatlari, ularning bilimi va tajribasi beqiyos. G'uzor tumanidan «Do'stlik» ordeni sohibasi Dilfuza Eshpo'latova «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'riktanlovining Respublika bosqichida fransuz tilidan 2-o'ringa munosib topildi.

Albatta, bugungi tezkor zamonda farzandlarimiz turli sohalarida dunyo bolalaridan kam emasliklarini namoyish etmoqda. Bizning bugungi kundagi asosiy vazifamiz va burchimiz parvozi baland yoshlarimizning yutuqlari salmog'ini yanada oshishida yaqindan yordam berishdir.

salmoqli ishlar amalga oshirildi. Qamashi tumanidagi yangi qurilgan 6-sonli, Shahrisabz tumanidagi 2-sonli musiqa va san'at maktabi shular jumlasidandir.

Bolalar sporti jamg'armasi mablag'i hisobidan 9 ta sport zali, Qarshi shahridagi «Badiiy gimnastika zali» yangidan barpo etilgan bo'lsa, Qarshi tumanidagi 1-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabi, Koson tumanidagi 3-sonli BO'SM kapital rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

Quvonarlisi, viloyatimiz o'quvchilarining bilim darajasi yildan yilga oshib, «Bilimlar bellashuvi»da

SOHIBQIRON MEROSI

O'rta asrlarda nihoyatda ulkan, markazlashgan davlat barpo etib, jahon tarixida munosib iz qoldirgan buyuk bobokalonimiz, Sohibqiron Amir Temur nomi asrlar davomida nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq Sharq va Yevropada ham shuhrat qozondi.



Uning adolat yo'lidagi xayrli ishlari xalq va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qildi. Buyuk bobomiz o'z davrida madaniyat, ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va boshqa ko'plab sohalarini rivojlantirgani tarixiy haqiqatdir.

Amir Temur hukmronligi davrida Samarqand, Kesh (Shahrisabz) Toshkent, Buxoro, Sirdaryo bo'yolari, Movarounnahrning jamiki shahar va qishloqlarida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Jumladan, Sohibqiron ona yurti Keshda qurdirgan, ulug'vor Oqsaroy bugungi kunda ham butun jahonga ma'lum va mashhurdir. O'sha davrda mazkur saroy nafaqat hukmdor va uning oilasi istiqomat qiladigan, balki davlat muassasalari ham faoliyat olib boradigan joy bo'lganini ta'kidlash lozim. Shuningdek, qadim Keshda barpo etilgan Dor ut-tilovat hamda Dor us-sayodat singari maqbara va binolar shaharning ilmiy-madaniy salohiyatiga ulkan hissa qo'shish bilan birga, o'z salobati bilan shaharning tashqi ko'rinishiga ham o'zgacha joziba baxsh etib turgan.

Amir Temurning bunyodkorlik va obodonchilik ishlari xususida yana ko'plab gapirish mumkin. O'sha davrlardan moddiy meros va ma'naviy boyliklar namunalarini buyuk sarkarda avlodlari uchun hamisha qadrlidir.

Sevin OCHILOV,
Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining Axborot xizmati rahbari

MILLIY INTERNET TARMOG'I

SOG'LOM AXBOROT TARAFDORI

Avval xabar berganimizdek, yaqinda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi hamda qator vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda «MIT.uz» – Milliy internet tanlovi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar Dasturi»ga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va milliy internet segmentini rivojlantirish sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilgan tanlov yuqori saviyada tashkil etildi.

Tanlov natijasida yoshlar tomonidan foydali axborot resurslari, shuningdek, bir qator nominatsiyalar bo'yicha fotojamlanma yaratildi. Jumladan, «Mahalla, qishloq va shaharlar aks etgan eng yaxshi fotosurat», «O'zbekiston tabiati va tarixiy yodgorliklari aks etgan, kompyuter va boshqa elektron uskunalarga o'rnatishga mo'ljallangan internet tarmog'idagi eng yaxshi fotojamlanma» nominatsiyalari bo'yicha 250 dan ziyod fotosuratlar asosida elektron uskunalarning (mobil telefon, planshet va noutbuklar) ish stoliga o'rnatishga mo'ljallangan fotojamlanmadan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz.



BIR KELIB KETING

Ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim maskanlarida tahsil olayotgan iqtidorli tengdoshlarim faoliyati haqidagi maqolalarni muntazam kuzatib boraman. Ular erishayotgan yutuqlar, qo'lga kiritayotgan natijalariga juda havas qilaman.

Bizning maktabda ham ana shunday iste'dodli o'quvchilar talaygina. Maktabimizda tashkil etilgan tikuvchilik, to'quvchilik, duradgorlik to'garaklariga qatnayotgan do'stlarimning ijod namunalari go'yo mo'jizaning o'zi deysiz. Ming marta gapirgandan, bir marta ko'rgan afzal, deyishadi. Shuning uchun maktabimizga bir kelib, iste'dodli o'quvchilarning mahoratiga o'zingiz baho bering.

Muxlisa
TO'XTAMURODOVA,
Koson tumanidagi
19-umumta'lim
maktabining 8-«A» sinf
o'quvchisi

Kuz o'z o'rmini qishga bo'shatish arafasida. Atrofga sap-sariq oltindek sepini yoygan fasi yasovullari – daraxtlar o'z ishlaridan mamnundek savlat to'kib turishibdi.


HAR FASLNING O'Z XISLATI BOR

Bobodehqon hosilni yig'ishtirib, yengil tin oldi. Ekin maydonlari qayta haydaldi. Kuz – faylasuf fasl, kishi taassurotlarini o'stirib, zavqlantiradi. Barglarning oyoqlarimiz ostidagi mayin shiviri o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi. Ko'kka boqsangiz, shamol bulutlarni oldiga solib haydayotgandek. Xullas, o'y-xayolga cho'mdiradigan bu fasl bebaho tarovati bilan ajralib turadi. Beixtiyor shoirimning:

*Har faslning o'z xislati bor,
Har faslning o'z fazilatini.*

*Kumush qishdan, zumrad bahordan,
Qolishmaydi kuzning ziynati...*

deb boshlanadigan she'riy misralari xayolimizdan o'tadi.



Dilfuza NORQULOVA,
Qarshi shahridagi 43-umumta'lim
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

VATAN SURATIGA CHIZGILAR

*Vatan!
Senda onamdagi mehr,
otamdagi ulug'vorlik mavjud ekan.*



Tuprog'i ko'zimga to'tiyo, maysasi vujudimga beshik, suvi tomirimda qon, osmoni boshim uzra soyabon. Quyoshi qalbimga nur, yulduzi qorachig'imda gavhar bo'lgan Vatan – onajonimsan. To'rt fasli oltinga teng makon – mo'jizalar maskani – ona O'zbekiston!

Bugungi kunda biz yoshlarning yuksak ma'naviyatli, puxta bilimli bo'lib kamol topishimiz uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ishontirib ayta olamanki, men va men kabi yoshlar bor bilimimiz, kuch-g'ayratimizni

Vatan ravnaqi yo'lida sarf qilib, barkamol avlod degan nomni oqlaymiz.

Ko'ksida Vatan ishqiy gullagan, yuragida insoniylik jo'sh urgan kishigina ota-onasini qadrlab, ustozini ulug'lab, el-yurt hurmatiga sazovor bo'ladi. Vatan koriga yaraydi. Vatan, men seni doimo sevib yashayman, nomingni butun umr qalbidam saqlayman, sening Malikang seni doimo hurmatlab, asrab-avaylaydi.

Malika NO'MONOVA,
Kitob tumanidagi
4-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi

Siz nima deysiz?

Texnika asri, deya ta'riflanayotgan, shiddat bilan yangilanayotgan bugungi tezkor zamonamizda mobil telefonlari doimiy hamrohimizga, yaqin yordamchimizga aylangani hech kimga sir emas. Undan hatto kichik yoshdagi bolajonlarning ham bilag'onlik bilan foydalanishlariga ko'nikib qolganmiz.

«MENGA MOBIL TELEFON KERAKMAS...»

Lekin sarlavhani o'qib, hozir shunday deyidigan bolalar ham bor ekanmi, deya ajablanayotgandirsiz?! Buni qarangi, bor ekan! Nishonlik tengdoshingiz Samariddin onasiga aytgan bu gapini shunday izohlaydi: «Telefon meni darsdan chalg'itadi. Uning imkoniyatlari, turli qiziqarli o'yinlari har qanday bolani o'ziga jalb qilib oladi. Men ana shu o'yinlarni o'ynashga, do'stlarim bilan SMS xabarlarini yozishga ketadigan vaqtimni fanlardan oladigan qo'shimcha darslarimga sarflamoqchiman».

Chindan ham 1-Qarshi davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 8-«D» sinfida tahsil olayotgan Samariddin Soatmurodov darsdan bo'sh vaqtlarini asosan fan to'garaklarida o'tkazadi. Hozirdanoq o'z oldiga aniq maqsad qo'yan: diplomat bo'lmoqchi! Unga erishish uchun puxta bilim olishi lozimligini yaxshi bilgani holda ingliz tili, tarix, ona tili to'garaklariga muntazam qatnab, darslarda olgan

bilimlarini to'ldirib, boyitib boryapti.

Samariddin o'quvchilaridan bor bilimi, salohiyatini ayamaydigan ustoz Sharofat opa Zohidovadan, qo'lga ilk bor qalam tutqazib, bilimlar olamiga yetaklagan, yuqori sinflarda a'lo baholarga o'qishi uchun zamin yaratgan birinchi o'qituvchisi Guljahon opa Xolmurodovdan cheksiz minnatdor. Ular haqida hurmat bilan gapiradi.

– Ustozlarimizning bizdan umidi katta. Ularning ishonchini oqlash uchun, qolaversa, yurtimizda biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, cheksiz imkoniyatlarga munosib javob qaytarish uchun ham yaxshi o'qishimiz kerak! – deydi u.

Hayotning har lahzasidan unumli foydalanib, hamisha oldinga intilgan insongina o'z maqsadiga erishishi mumkin. Bu hayot ibratini o'ziga shior qilib olgan Samariddinning oppoq orzulari ijobatiga shubhamiz yo'q.

Feruza JALILOVA



DIZAYNER BO'LAMAN!

Nishon tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan Farangiz Igarovanning maqsadi shunday.

Ustozi Munojot Boyxonovanning yaqin yordamchisi bo'lgan bu tirishqoq qizaloqning qiziqmagan sohasi yo'q hisobi. Maktabdan kelib, musiqa va san'at maktabiga oshiqadi. Bir kuni rasm chizish to'garagida shug'ullansa, ikkinchi kuni raqs to'garagiga shoshadi. Musiqa to'garagi rahbari Farhod akadan raqs san'atining sir-asrorlarini o'rganadi. Fanlardan olayotgan qator-qator «5» baholari, san'at sohasida erishayotgan yutuqlari bilan onasi Zebo opani quvontiradi, mehribon buvijonisining duolarini oladi.

Kelgusida mohir dizayner bo'lib, milliylik va zamonaviylik uyg'unligida yaratgan liboslari ko'rgazmasi dunyo kezishini orzulayotgan qizimizga omad yor bo'lsin, deymiz.



DILLARDA VATAN MADHI

Nafosat Abdurasulova Qarshi shahar 34-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

U «Sog'lom bola yili» hamda Istiqlolimizning 23 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ko'rik-tanlovida o'zining she'rlari bilan ishtirok etdi. Uning ijodida asosan, Vatana, ona, tabiat mavzulari keng o'rin olgan. Nafosatning «O'zbekiston» nomli she'rida

Zilol suvlaringdan bahramand bo'ldim,

Yashnagan bog'ingda quvonchga to'ldim kabi shukronalik hissi jo'sh urgan satrlar bitadi. Seni qiyosladim munis onamga... deya Vatanni onaga, onani esa Vatanga o'xshatadi. Yana bir she'rida esa «Dillarda Vatan madhi» deb o'zining quyoshli yurtidan faxrlanadi.

Ismi jismiga munosib bo'lgan Nafosat adabiyotga, she'riyatga juda qiziqadi. Bu borada, albatta, ustozlari hamda onasi unga yanada ilhom berishadi. Darvoqe, uning onajonisi 34-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyoti fanidan saboq beradi.

Kelgusida Nafosatni onajonisi kabi ustoz desalar, o'zini baxtiyor hisoblaydi. Biz esa uning orzulari ijobat bo'lishini tilab qolamiz.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini boshlang'ich sinflardan boshlab aniqlash, ularni rivojlantirish hamda kasb-hunarga yo'naltirish uchun shart-sharoitlar yaratish, umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan «Dars muqaddas», «O'rgan-o'rgat», «Ustoz-shogird» tavsiyalaridan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

IZLANISHLAR SAMARASI

Ana shunday tadbirlardan biri yaqinda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Ko'rgazmali qurollar» ko'rik-tanlovidir. Mazkur ko'rik-tanlov boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasb-mahoratini oshirish va ular tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarni maktab, shahar, viloyat miqyosida ommalashtirish maqsadida o'tkazib kelinmoqda.

Ushbu tanlovning yana bir muhim jihati shundaki, o'qituvchilar keraksiz ashyolar, qog'oz quti, shuningdek har xil o'simlik va gullarning urug'idan ham ko'rgazmali vositalar yaratayotganliklari. Jumladan, maktabimiz o'qituvchisi Norjon Abdiyeva tomonidan «Sehri sandiqcha», «Bilyard o'yini» tayyorlangani, Gulchehra Sherovanning «Quyosh sayyorasi», Nazokat Ahmedovanning «Savatcha», Shahnoza Xolmurodovanning «Ertaklar mamlakatida», «Fanlar olamiga sayohat», «So'z o'yini» kabi ko'rgazmali qurollari yangiligi bilan barchaga manzur bo'ldi.

Tanlov Nizomiga ko'ra boshlang'ich sinf o'qituvchilarining husnixat daftarlari ham namoyish etildi. E'tiborlisi shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining mahorati bois, o'quvchilarning yozuvlari chiroyli bo'ladi.

Qizg'in bahslarga boy tarzda o'tkaziladigan ushbu ko'rik-tanlov boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida ijodiy raqobatni yuzaga keltirishga zamin yaratadi, o'qituvchilarning ijodkorlikka chorlaydi, natijada, ta'limning sifat va samaradorligi oshib boraveradi.

Gulsara NAZAROVA,

Qarshi shahridagi 23-umumta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosar.



Chiroqchi tumanidagi 1-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi Manzura Xolmurodova o'quvchilarning bilimini sinovdan o'tkazayapti.

SHARAFLI VA MAS'ULIYATLI

kasb tanlaganimdan faxrlanaman, – deydi «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Muqaddam OCHILOVA.

Muqaddam Ochilova qariyb 20 yildan beri Qarshi shahridagi 26-umumta'lim maktabida o'quvchilarga kimyo fani sirlaridan saboq berib kelmoqda.

– Ustozning o'quvchilari Respublika fan olimpiadasida, «Bilimlar bellashuvi»ning shahar, viloyat va respublika bosqichlarida muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Muqaddam opaning o'qituvchilik kasbiga havas qilgan bir nechta shogirdlari hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarini bitirib, maktablarda, kollej va akademik litseylarda

kimyo fani o'qituvchisi sifatida samarali mehnat qilib kelmoqdalar, – deydi Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi metodisti Qursiya Qo'ldosheva.

– Mustaqilligimizning ilk kunlarida

noq jismanon sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash davlatimizning ustuvor vazifasi etib belgilandi, – deydi ustoz faxr bilan. O'tgan davrda ulkan ishlar, mamlakatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan qator umummilliy dasturlar, qarorlar qabul qilindi.

Bugun esa o'quvchi-yoshlarimiz o'z iqtidori, keng dunyoqarashi, yuksak ma'naviyati bilan dunyoni lol qoldirishmoqda. Men ana shunday izlanuvchan, intiluvchan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berayotganimdan faxrlanaman.



YOSHLIKDAN O'RGANSANG HUNAR...

Qashqadaryo viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Bugungi kunda Muhayyo opa Miliyeva rahbarlik qilayotgan ushbu maskanda 450 nafar o'quvchiga 22 nafar o'qituvchilar hunar sirlarini sidqidildan o'rgatishmoqda.

Markaz o'quvchilari bu yil qo'lga kiritgan yutuqlari bilan faxrlanishsa, arziydi. Jumladan, Respublika «Barkamol avlod» badiiy ijodiyot markazi tomonidan tashkil etilgan «Kosmik maketlashtirish va modellashtirish» bo'yicha maktablararo «Umid nihollari» Respublika Chempionat va ko'rgazmasida XTMFMTTE bo'limiga qarashi «Barkamol avlod» bolalar markazlaridan 112 nafar o'quvchilar 8 ta yo'nalish bo'yicha faol ishtirok etishdi.

Musobaqada Qamashi tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Sardor Botirov 1-o'rinni, 61-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Husan Sayfullayev 2-o'rinni, Kitob tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Dilshod Berdiyev hamda 6-sinf o'quvchisi Ozodbek Xushvaqto'v 3-o'rinni egallashdi. Respublika bosqichida esa faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritib, ustozlarning ishonchini oqlashdi.

Iqtidorli o'quvchilarni saralash, ularning iqtidoriga, ixtirosiga munosib baho berish

maqsadida tashkil etilgan «Yilning eng yaxshi ixtirochisi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida qatnashgan, G'uzor tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Javlon Do'syorov 1-o'rinni, Shahrisabz tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Umiddjon Aktamov 3-o'rinni egallashdi va viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazining faxriy yoriqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Quvonarlisi, musobaqa g'olibi Javlon Do'syorov ko'rik-tanloving Respublika bosqichida «Eng yosh ishtirokchi» nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.

O'quvchilarni vatanparvar, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash

maqsadida o'tkazilgan Respublika «Barkamol avlod» texnik ijodiyot markazining Aviamodel yo'nalishining «Katapulta yordamida uchuvchi samolyot modellari» Respublika birinchiligi musobaqasining samolyot modellari nusxalari ko'rgazmasi tashkil etildi. Musobaqaning «Qog'ozdan yasalgan turli xil samolyot modeli» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni Yakkabog' tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Og'abek Karimov, «Uchar qanot», «Hajmli» (Fuqaro va Harbiy) yo'nalishida 2-o'rinni Shahrisabz tumanidagi 79-umumta'lim maktabining 7-sinf

o'quvchisi Asror Berdiyev, 26-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Jamshid Tillaboyevlar egallashdi.

Ayni damda viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi iqtidorli o'quvchilar bilan gavjum. Chunki ular bilim va hunar insonning doimiy hamrohi ekanligini juda yaxshi bilishadi. Zero, «Yoshlikdan o'rgansang hunar, hayot aytganingga ko'nar», deb bejiz aytishmaydi-da...



YULDUZLAR JILOSI

– Mamlakatimiz maktablarida bo'lgani kabi viloyatimizda ham musiqa va san'atga ixlosmand o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, salohiyatini ko'tarish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda, – deydi viloyat xalq ta'limi boshqarmasining BMSM faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i Sobirjon MADIYEV.

– Musiqa va san'at maktablarining moddiy texnika bazasini takomillashtirish tufayli ko'plab iqtidor egallari



kashf etilib, o'z navbatida bu sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda.

Ayni chog'da viloyat o'quvchilari nafaqat respublikamizda, balki xalqaro tanlovlarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqdalar. Rossiyada o'tkazilgan «Yangi nomlar» tanlovida shahrisabzlik Asadbek Murodov, qarshilik Doston Abdullayev, kosonlik Maftuna Xushmurodova g'oliblar safidan joy oldi. Fransiyada bo'lib o'tgan Aleksandr Glazunov nomli VIII xalqaro tanlovda shahrisabzlik Sharofiddin Burhonov, Turkmanistonda o'tkazilgan festivalda Kitob tumanidagi xoreografiya bo'limi o'quvchilaridan yetti nafari Ispaniyaning Barselona shahrida bo'lib o'tgan «O'rtayer dengizi afsonasi» nomli xalqaro festivalda yakkabog'lik Ahror Nizomov va Mohidil Nizomova munosib ishtirok etdilar.



Joriy yilning 21–26-oktabr kunlari Toshkent shahrida birinchi marotaba o'tkazilgan «Ona yurt ohanglari» nomli tanlovda Shahrisabz tumanidan Hayotbek Yo'ldoshev ishtirok etib, sovrindor bo'ldi.

Mazkur yilda «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida olti yo'nalis bo'yicha 391 nafar o'quvchi o'zaro bellashib, ulardan 25 nafari festivalning respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Yana shuni ham ishonch bilan ayta olamizki, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yosh iqtidorlarning respublika va xalqaro tanlovlarda qo'lga kiritajak yutuqlari yildan yilga oshib boraveradi.

Ingiliz tilini o'rganamiz!

Phrasal verbs (Iboralar)

Lesson 11

Let's learn English!

Hulkaroy

Be over – tugamoq, tamom bo'lmoq.

For example: The storm is **over**, it has stopped raining and the sun is shining.



Give out – tarqatmoq.

e.g: The teacher **gave out** the books, so that the pupils could read the story.



Try on – kiyib ko'rmoq.

e.g: Last week I went into a shop and **tried on** three hats. The first hat was too big, the second one was too small, but the third one fitted me perfectly and looked good, so I bought it.



Do up – to'g'irlamoq (tugmasini taqmoq).

e.g: It was very cold day, so Botir **did up** all the buttons on his overcoat.



Take off – yechmoq.

e.g: Sayyora **took off** her jacket because she was feeling very hot.



Look up to –

hurmat bilan qaramoq.
e.g: Young Boburs favourite footballer is Odil Ahmedov of Paxtakor. Bobur **looks up to** Odil Ahmedov and he tries to be like him.



Autumn (Kuz)

Descending leaves fall to the ground, Twirling, twisting, round and round, Autumn season is almost here, The smell of freshness is oh so near.

The crisp, cool breeze, Shakes the leaves from the trees, Autumn takes away the green, Golden-bronze and brown is all that can be seen.



In Karshi district the pupil of school number 28 from 9 «A» Hulkaroy XIDIROVA is known from readers of this newspaper. Because her articles and poems are published often in «Tong yulduzi».

The diligent and stirring girl Hulkaroy is going to read this newspaper with enjoyment in 2015 th also. She is one of the first subscribed pupil to her favorite publication.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV



Brainstorming (Aql charxi)

Match a line A with a reply in B and with a line in C
A qatordagi gaplarni B va C qatordagi mos gaplar bilan bog'lang.

1 What a lovely day it is today!	I am enjoying it.	Was it good game?
2 It is very wet today.	Yes, no problem.	That's very kind of you.
3 How are you today?	I am very well, thanks.	We had a pub lunch and went for a walk.
4 Did you have a nice weekend?	No, I missed it.	The plane was a bit late, but it didn't matter.
5 How are you finding living in London?	Thank you.	Makes you feel miserable, doesn't it?
6 Did you have a good journey?	Thank you very much	I got it in Paris last year.
7 Did you watch the football	Yes	How about you?
8 What a lovely coat you are wearing!	Yes, it was lovely.	It was a bit strange at first, but I am getting used to it.
9 If you have any problems, just ask me for help.	Mm ... horrible	Beautiful, isn't it?

BUYUKLARGA BESHIK BO'LGAN YURT

O'zining bepoyon dasht-u dalalari, ko'ngli osmon odamlari bilan yurakdan joy olgan Qashqadaryo vohasiga har gal yo'limiz tushganda, ko'nglimiz yayraydi. Adabiyotga mehri baland bo'lgan elning suyuqlik farzandlari qalbida yurtga bo'lgan faxr-iftixor tuyg'ulari cheksizligidan quvonamiz. Istiqloq sharofati bilan kundan kunga chiroy ochib borayotgan bu betakror zaminda tahsil olayotgan bilimga chanqoq o'g'il-qizlarimiz o'zlarining benazir tuprog'ini e'zozlab she'r yozganda shodlikdan yuksak cho'qqilar bag'rini zabt etgandek bo'lamiz. Sohirqiron Amir Temur bobomizning qadami tekkan bu muqaddas tuproqdan hali el-u yurtning koriga yaraydigan ko'plab ulug' ijodkorlar chiqishiga ishonamiz.



BAYROQ

O'zbekiston bayrog'i, Hilpiraydi osmonda. Vatanimning dovrug'i, Taralmoqda jahonga.

Bayroqdagi ranglarni, Ko'rib, ko'zing quvnaydi. Har bitta rang bizlarni, Ezgulikka undaydi.



Madina RAHMONOVA, Qamashi tumanidagi 66-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

QOMUSIMIZ – BAXTIMIZ

Konstitutsiya – baxtimiz, Qomusimiz – taxtimiz. Bizga doim yor bo'lsin, Obod turmush bor bo'lsin.

O'zbekiston – gul makon, Jannatmakon, hur makon. Bog'-u bo'stonlar aro, Quyosh kulgan nur makon.

Sevinch USMONOVA, Chiroqchi tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

GULLAR BAZMI

Karnaygul karnay chalar Imlab qoqi – inisin. Tebranib jaranglatar, Chinnigullar chinnisin.

Atirgul-u sunbulgul, Pechakgul kular xandon. Gultuvakda xitoygul Qarsak chaladi shodon.

Chirmovugul – alpinist Tol xodaga chirmashar. Sadarayhon bo'ylari Keng vodiy-u qir oshar.

Quvona bog' hovlini Xushbo'y hidga to'ldirib. Bazm qurar ahil, shod, Yer-u ko'kni kuldirib.



HASHAR



Sinfodoshlar hammamiz, Bugun rosa shodlandik. Tongdan meva tergani, Olmazorga otlandik.

Qizib ketdi hashar-ey, Qutilarni taxtlar Nor. Savat to'qir xivichdan Qo'li chaqqon Gulbahor. Daraxtlarga Xolbobo Narvon qo'yib chiqdi tez. Olma to'la savatni Tashir Xolto'ra, Aziz. Tegsin deya ko'magim O'zni ishga urdim men. Daraxtga chiqib olib, Olma qoqib turdim men.

«TONG YULDUZI» MENING HAMROHIM



«Tong yulduzi» mening hamrohim, Yuragimga quvonch baxsh etar. She'rilarimni unga yo'llasam, Orzularim osmonga yetar...

Alijon ZOIROV, Mirishkor tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

OYMOMO

Oymomojon, oymomo, Yuzing dog'mi, hoy momo. Har tun ziyo taratmoq, Senga emas muammo.

Osmonda yaraqlab sen, Suzib borasan erkin. Hurlik nasimin quchdim, Senga o'xshaymanmi men?



Qani, men ham Oy bo'lsam, So'qmoqlarga to'kilsam. Nur bo'lib takror-takror, Vataminga ekilsam!

Hulkar HAZRATOVA, Kitob tumanidagi 61-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi, «Orzularga to'la qalb» adabiy-badiiy to'garagi a'zosi

– Badiiy adabiyot inson ma'naviyati, ruhiy olamining mahsulidir. Shu bois har doim ham unga bo'lgan ehtiyoj, intilish, xohish kishilarda ustun bo'lib kelgan. Chunki badiiy adabiyot orqali kishi tabiat va borliqdan zavq oladi, o'z-o'zini qayta tarbiyalaydi, qolaversa, o'ziga kerakli bo'lgan ma'naviy va ruhiy ozuqani oladi, – deydi Dehqonobod tumanidagi 22-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulnora Karimova.

Boshlang'ich sinflarning «O'qish» va «Odobnoma» darsliklarida o'quvchilarning so'z boyligi, nutq odobi kabi fazilatlarining rivojlanishiga yordam beradigan badiiy asarlardan namunalar keltirilgan. Albatta, badiiy asarni o'rganish dastavval uni ifodali o'qishdan boshlanadi.

Shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy bosqichini badiiy asarlar tashkil qiladi. O'quvchilar badiiy asarni o'qir ekanlar, ularning ko'z oldida alohida manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo'ladi. O'quvchilar asarni o'qish orqali yozuvchining ilgari surgan fikri, g'oyasi bilan tanishadilar. Har bir asar bilan tanishish, uni o'ylash va tushunish o'quvchining nutqiga, dunyoqarashiga, fe'l-atvorining shakllanishiga, sezgisining takomillanishiga yordam beradi.

Men o'z ish tajribamda «O'qituvchi» nashriyotida chop etilgan «O'zbek xalq



ertaklari» kitobidan keng foydalanib kelaman. Mazkur uch tomdan iborat «O'zbek xalq ertaklari» to'plamida o'zbek xalq og'zaki ijodiga oid jami 178 dan ortiq ertaklar jamlangan. Ertaklar tinglovchilarni keng fikrlashga, xayolot olamiga, orzular qanotida parvoz qilishga undaydi, eng muhimi, ertaklar o'quvchilarni odobga, xushmuomalalikka, mehnatsevarlikka, kamtarlikka, go'zal insoniy fazilatlariga, inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafratni uyg'otishga qaratilgan.

Umuman olganda, badiiy adabiyot vositasida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish shaxs kamolotining ustuvorligini ta'minlaydi. Shunday ekan, o'qituvchi ushbu ishga ilmiy-metodik jihatdan tayyorlanish, unga ijodiy yondashish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularga mos mazmun va metodlar belgilashni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida «Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymone'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir», deyilgan. Yurtboshimiz ta'riflagandek, farzandlarimizga kichikligidanoq badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, badiiy adabiyot orqali odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymone'tiqodli etib tarbiyalash asosiy burchimiz ekanligini unutmaylik.

«UMID» INTELLEKTUAL YOSHLAR KLUBI unda iqtidorli, ijodkor o'quvchilar safi kengaymoqda

Bugungi kunda Mirishkor tumanidagi 22-umumta'lim maktabida 21 ta sinf bo'lib, ularda 620 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Izlanuvchan, bilimga chanqoq o'quvchilarga 43 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya beradi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan O'g'iljahon Qurbonnazarova, Gulora Abdiyeva, Husnora Oymurodova, til va adabiyot fani o'qituvchilari Muxtor Pardayev, Ismat Salayev, matematika fani o'qituvchisi Oqnamat Bo'tayev, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Xo'jamurod Qurbonov, rasm-chizmachilik fani o'qituvchisi Madrahim Qoryog'diyev, informatika fani o'qituvchisi Panji Ataovlar darslari qiziqarliligi, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'tilishi natijasida o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirmoqda.

Maktabda boshlang'ich hamda 5-9-sinflar uchun zamonaviy o'quv ko'rgazmalari bilan jihozlangan ingliz

tili xonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ingliz tili o'qituvchisi Kamol Choriyev har bir darsni quvnoq, ko'rgazmaga boy tarzda o'tishi tufayli o'quvchilarning o'zlashtirishi yuqori bo'lmoqda.

Maktab o'quvchilaridan 5 nafari bilimlar bellashuvi tuman bosqichida g'olib bo'lib, viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Bilim maskanida «Ustoz-shogird maktabi», «Dars muqaddas», «O'rgan-o'rgat» yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Bu kabi ezgu ishlarga, mana 18 yildirki, ijodkor o'qituvchi, «Oltin qalam» xalqaro Milliy mukofoti sovrindori, tajribali pedagog Abdunabi Abdiyev rahbarlik qilib kelmoqda.

Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan «Umid» intellektual yoshlar klubi o'z atrofiga iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni birlashtirgan. Klub a'zolari nafaqat maktab, tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan tadbirlarda ham faol ishtirok etishmoqda. Klub qoshidagi «Yosh ijodkorlar» to'garagi qatnashchilarining ijod namunalari tuman, viloyat, respublika matbuotida e'lon qilib turiladi. Jumladan, Niginabonu Abdunabiyeva, Ozoda Iskandarova,

Oynavot Jabborova, Dilsora Xolmurodova, Laylo Avazmurodova, Elnoza Narzullayeva, Madadbek Jo'raboyev, Dilshod G'aybullayev, Nurbek Safarovlar shunday ijodkor o'quvchilar sirasiga kiradi.



– Bugungi kunda maktabimiz o'quvchilarining 300 nafari «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishgan, – deydi Respublika «Bilimlar bellashuvi» hakami, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Muxtor Pardayev. – Gazetxon o'quvchilarimiz tarbiyaviy soatlarda, «Umid» intellektual yoshlar klubida, hatto katta tanaffuslarda ham mutolaa zavqi bilan band bo'lishadi. Bu esa, albatta, biz ustozlarni quvontiradi, – deydi mamoniyat bilan Muxtor aka.

Ha, mazkur bilim maskanida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya fidoyilari talaygina ekan, demak, bu maktab o'quvchilarining kelajagi porloqdir.



2014-yil – Sog'lom bola yili

G'ALABALAR QUVONCHI

Mamlakatimizning dunyoga tanilishida sportning o'rni beqiyos. Istiqloлга erishganimizdan buyon o'tgan davrda xalqaro maydonlarda qo'lga kiritilgan g'alabalarda viloyat sportchilarining ham munosib hissasi bor.

– Istiqlolning dastlabki yilida viloyatimizda yigirmadan ortiq sport turi bilan shug'ullanilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni qirqdan oshdi, – deydi O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Qashqadaryo viloyati filiali direktori Sirojiddin Azizov mamlakatimizda mazkur jamg'arma faoliyati yo'lga qo'yilgach, sport inshootlarining soni yanada ortdi. Birgina viloyat misolida oladigan bo'lsak, 2003 – 2013-yillarda jamg'arma mablag'lari hisobidan 154 ta zamonaviy sport binolari qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Foydalanishga topshirilgan sport inshootlari zarur anjomlar bilan jihozlandi.

Birgina o'tgan yilning o'zida sportchilarimiz jahon, Osiyo, xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda jami 571 ta, 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarimiz xalqaro maydonlarda 7 oltin, 4 kumush va 6 bronza medal egasi bo'ldilar.

– Viloyatimizda o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalar ham bolalarimizning sportga bo'lgan qiziqishini oshirayapti, – deydi mehnat faxriysi g'uzorlik Rahmat Shoyimov. Shu kunga qadar Bahrom Avazov, Sherali Jo'rayev (ikki martadan), Isqoq Ahmedov, Shuhrat Arslonov, Davlat

Abrajev singari polvonlarimiz kurash bo'yicha jahon chempioni nomiga sazovor bo'lishdi.

Eng quvonchlisi, dzyudo bo'yicha mamlakat terma jamoasi a'zolarining ko'pchiligi Qashqadaryo viloyati polvonlari. Bugun xalqaro maydonlarda yurtimiz sha'nini himoya qilayotgan Davlat Choriyev, Navro'z Jo'raqobilov, Mirzohid Farmonov singari dzyudochilarimizni dunyo taniydi. Sababi, ular 2012-yili Londonda bo'lib o'tgan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarida munosib qatnashishdi.

– Bir zamonlar o'zbek qizining badiiy gimnastika bilan shug'ullanishini tasavvur ham qilolmasdik, – deydi murabbiy Vera Katayeva. – Bugun ular nafaqat shu sport turida, balki boshqalarida ham yetakchilar safida bo'lishayapti. Viloyatimizda badiiy gimnastika rivojlana boshlaganiga o'n yillar bo'ldi. Bu davrda shogirdlarimdan Luiza G'aniyeva mamlakat terma jamoasi safida Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib, xalqaro toifadagi sport ustasi talabini bajardi.

Qashqadaryo viloyati o'quvchi-yoshlarining ta'lim va ma'naviyat sohalari qatori sportda erishayotgan yutuqlari ham salmoqli.

YOSH SPORTCHILAR E'TIBORDA

«Yosh qutqaruvchi» musobaqasining viloyat bosqichida g'olib bo'lgan Kitob tumanidagi 28-umumta'lim maktabining «Qalqon» jamoasi Respublika bosqichida faxrli 2-o'ringa sazovor bo'lgani yoshlarning har tomorilama sog'lom bo'lib voyaga yetishi uchun qaratilayotgan g'amxo'rlik samarasidir.

E'tirof etish joizki, maxsus maktab-internatlarda ta'lim olayotgan nogiron bolalar ham doimiy e'tiborda. Mana shunday o'quvchilar o'rtasida viloyat Olimpiya zaxiralari kolleji dzyudo, yengil atletika hamda suzish musobaqalari o'tkazilib, 45 nafar o'quvchilar Respublika bosqichida ishtirok etishdi. Yosh yengil atletikachilar shohsupaning eng yuqori pog'onasini, dzyudochilar 3-o'rinni, suzuvchilar esa 4-o'rinni egallashdi.



ISTE'DOD BULOG'I KO'Z OCHSA...

Ha, iste'dod bulog'i ko'z ochsa, irmog'ini to'g'ri yo'lga sol, deydi dono xalqimiz. Bugun umumta'lim maktablarida tasviriy san'at yo'nalishiga qiziqib, bu borada qalam yurgizayotgan yosh iqtidor egalari talaygina.

Tasviriy san'at olamining sir-sinoatlarini qunt bilan o'rganayotgan yosh ijodkorlarga ustozlarning ham befarq emasliklari kishini quvontiradi.

– Bolaligimdan «Tong yulduzi» gazetasiga mehrim bo'lakcha. Bugungi kunda ham uning har bir sonini kuzatib boraman. Respublikamizdagi ijodkor o'quvchilarning ijodi bilan tanishib, menda ham tahririyatga maktub yo'llash fikri tug'ildi, – deydi Kasbi tumanidagi 15-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Shoira Tursunova. – Bizning maktabda ham tasviriy san'atga mehr qo'ygan, izlanuvchan, iqtidorli o'quvchilar juda ko'p. 5-sinf o'quvchilaridan Marjona To'xtamurodova, Feruz Oromov, 6-sinf o'quvchisi Ahmad Maydonov, 8-sinf o'quvchisi Akbar Yusupov, 9-sinf o'quvchilari Jahongir Shomurodov, Serob Xo'janazarovning ijodiy ishlaridan namunalarni e'tiboringizga havola qilaman.

O'quvchilarning chizgilarini kuzatar ekanmiz, ularda go'zallik aksini ko'rdik. Zero, har bir iste'dod takrorlanmas go'zallikdir.

Zubayda MAMATQULOVA




BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«QASHQADARYO VOHASI» SKANVORDI

Aylanma skanvord javoblarini topgandan so'ng, shakl markazidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish asosida topshiriqni hal eting. Bunda ulardan viloyatdagi tarixiy maskan va unda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida barpo etilgan salobatli yodgorlik nomini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan O'RIPOV



Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i To'ra Saidov, BMSM bo'limi boshlig'i Sobirjon Madiyev, viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi rahbari M. Miliyeva, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi

bosh mutaxassisi Mavluda Tosheva va boshqa mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ushbu sonni tayyorlaganlar: F. Adilova, F. Matyoqubov, A. Karimov, Yu. Abdullayev, D. Hotamova, J. Matyoqubov, N. Abdullayeva, O. Tursunboyeva, Sh. Maxmadiyev, Z. Mamatqulova.

8

24-noyabr 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul ko'lib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 29849
Buyurtma - S 1388

MATEMATIK TOPISHMOQ

Bu binoning sakkiz eshigi bor, Har bir eshik ortida sakkiztadan xonasi. Kirib, xonalarni ko'rsangiz, Oqi bilan tengdir qorasi.



Robiya TO'RAQULOVA, Dehqonobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



TOL

Bo'lsa hamki nomim tol, O'ynab yelda tolmayman. Darozlikda terakdan, Sira ortda qolmayman.

OLMA

Olma atalsam ham men, Olmam qolmas shoxida. Nega shunday ekan, deb, O'ylayman men gohida.

O'zi olma, deb turib, Mevamni olib yeydi. Bilmayman nega ular, Nomimni olma deydi.



Ochil TOHIR